



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends in Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2675

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## THE ROLE OF MORAL CONCEPTS IN THE UPBRINGING OF THE YOUNG GENERATION

Iskandarova Nilufar Toxirovna<sup>1</sup>

*Samarkand State Institute of Foreign Languages*

---

### KEYWORDS

Education, morality, manners, spiritual education, education, parents, spiritual heritage, virtue

---

### ABSTRACT

The article talks about the incomparable role of moral concepts in the upbringing of the young generation, the role of educational institutions, family, and parents in the formation of moral concepts in children. The views on the means and methods of moral education of the young generation are explained.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10204915**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Teacher of the Department of English Language Theory and Literature, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Uzbekistan ([iskandarovnilufar78@gmail.com](mailto:iskandarovnilufar78@gmail.com))

# YOSH AVLOD TARBIYASIDA AXLOQIY TUSHUNCHALARING O'RNI

KALIT SO'ZLAR/

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

Tarbiya, axloq, odob,  
ma'naviy tarbiya, ta'lif, ota-  
ona, manaviy meros,  
qadryat

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada yosh avlodni tarbiyalashda axloqiy tushunchalarni o'ri beqiyosligi haqida, bolalarda axloqiy tushunxhalarni shakillantirishda ta'lif muassasalarini na oila, ota oananing o'rni xususida so'z yuritilgan. Yosh avlodni axloqiy jixatdan tarbiyalash vositalari, usullari haqidagi qarashlar izohlab berilgan.

**KIRISH.** Ma'lumki jamiyat turli davrda shu zamondagi moddiy va axloqiy hayotga muvofiq tarzda rivojlanib boradi. Ammo, insoniyat avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq san'atini, urf-odatlarini, an'analarini, bu bebafo takrorlanmas boylikni avaylab asradik. Bu boylik shaxs rivojida g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Bolalar bu boylikdan bahramand bo'lishib, yoshlikdan undagi hayotiy va axloqiy pand-nasihatlarni o'zlashtirib, saqlab, kelgusi avlodlarga qoldirdilar.

Ming yillar davomida odamlar o'z faoliyatlarini jarayonida bolalarni va o'smirlarni turli xil mehnatga jalb etish, hamda ularda odamlar bilan birgalikda harakat qilish ko'nikmasini qaror toptirish va rivojlantirish, bolalarda mustaqil harakat qilish, ko'zlangan shaxsiy maqsadini amalga oshirishga intilish tuyg'usini o'stirishi zarurligini angladilar. Bu sohada ko'rsatgan faoliyatlarini natijasida bolalar aqli, tanasi rivojlandi, ular shaxs sifatida o'zlarini uchun zarur va foydali mehnatini tanlab, ajratib olishni o'rgandilar, ularda o'z-o'zini tarbiyalash insoniyat sivilizatsiyasi rivojida bordan-bir shart bo'ladi.

**ASOSIY QISM.** Maktabgacha ta'lif yoshining o'ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar ham axloqiy tushunchalarni so'z bilan aniq ta'riflab beraolmaydilar, uni boshqa shunga o'xhash voqealar bilan solishtira olmaydilar. Ammo bolalar maktabgacha ta'lif muassasalarida to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon axloqiy voqealarning umumiyligi ma'nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq namunalarini ko'rsatar, o'zlarini ham ularga o'xhashga harakat qiladilar. Bolalarda kattalar bilan muloqot jarayonida xulq-atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo'lgan extiyoj muhim ijtimoiy extiyoj bo'lib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy extiyojni qondiruvchi manba hisoblanadi. Muloqot mazmuni pedagogik jihatdan qimmatli bo'lishi kerak, shunda u bolaga zarur axloqiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy sifatlarni tarbiyalashning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: xulq-atvor ma'daniyati, bolalar va kattalar o'rtasida insoniy munosabatlarni tarbiyalash (ijtimoiy turmushning eng sodda qoidalarini bajarish; xayrioxlik, yaqin kishilarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va hokazo); jamoatchilikni tarbiyalash; ta'lif-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan bog'lab olib borish; bolalarning faolligi; oila, maktabgacha ta'lif muassasasi hamda, kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi;

boladagi ijobjiy sifatlarga tayanish ayniqsa muhimdir.

Pedagog bu barcha vazifalarni o'zaro bog'lik holda amalga oshira borib, bolaning his tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi va ularda axloqiy sifatlardan tarbiyalaydi, ayrim axloqiy fazilatlar va bolalarga tushunarli bo'lgan ijtimoiy turmush hodisalari haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantiradi, asta-sekin baholash va bir-biriga baho berish qobiliyatini rivojlantiradi.

Yangi kishini tarbiyalash g'oyat murakkab jarayon, shunday ekan, o'rtaga qo'yilgan tarbiya talablariga amal qiladigan kishilargina odobli, axloqli hisoblanadi.

Axloqiy normalarning hayotiy ko'rinishi, amaliy ifodasi kishilarning o'zaro munosabatlarida aks etadi. Chinakam insoniy fazilatlarga ega bo'lgan yoshlarni mukammal tarbiyalash har bir tarbiyachining asosiy vazifasidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning axloqiy-ma'naviy jihatdan kamol topishida quyidagi asosiy ma'naviy mezonlarini amalga oshirish zarur:

- Bolalarni xalqimizning boy ma'naviy va madaniy merosi, tarixiy obidalarimizni qalban his eta olishga o'rgatish.
- Muqaddas Islom dinimizning asosiy mazmuni va mohiyati nimaga qaratilganligi, uning bola tarbiyasidagi o'rnini tarbiyachi ota-onalar, mahalla o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish.
- Oila tarbiyasi borasida ota-onaning tutgan o'rni, vazifalari va burchlari haqida keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish.
- Bola ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda mahallaning ahamiyati va uning o'rni xususida davra suhbatlari, mahallada fuqarolar yig'inlari orqali tushuntirish ishlarini olib borish lozim.

Bolalarni ijtimoiy hayot voqealari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar to'g'risidagi eng oddiy bilimlarni egallab oishlari ularda dastlabki axloqiy burch hissini tarbiyalab borishga xizmat qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshining o'ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar ham axloqiy tushuncha yoki burch hissini so'z bilan aniq ta'riflab beraolmaydilar, uni boshqa shunga o'xhash voqealar bilan solishtira olmaydilar. Ammo bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi to'g'ri tashkil etilgan pedagogik jarayon axloqiy voqealarning umumiyligi ma'nosini anglab olishga yordam beradi. Agar bolalarga boshqalar yaxshi xulq namunalarini ko'rsatsalar, bolalar ham ularga o'xhashga harakat qiladilar.

Bolalarda kattalar bilan muloqot jarayonida xulq-atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj muhim ijtimoiy ehtiyoj bo'lib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy ehtiyojni qondiruvchi manba hisoblanadi. Muloqot mazmuni pedagogik jihatdan qimmatli bo'lishi kerak, shunda u bolaga zarur axloqiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagida burch hissini tarbiyalashning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat: xulq atvor ma'daniyati, bolalar va kattalar o'rtasida insoniy munosabatlarni tarbiyalash ( ijtimoiy turmushning eng sodda qoidalalarini bajarish; xayrihohlik, yaqin kishilarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va hokazo); jamoatchilikni tarbiyalash; ta'lim tarbiya ishiga bola

shaxsini hurmat qilgan holda yondashish; axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan bog'lab olib borish; bolalarning faolligi; oila, mактабгача та'lim tashkiloti hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi; boladagi ijobiy sifatlarga tayanish ayniqsa muhimdir.

Kichik yoshdan boshlab bolada birga qayg'urish, boshqa kishilarning g'am va quvonchlariga sherik bo'lish kunikmalarini shakllantirish muhimdir. Badiiy qahramonlar xulq-atvorini, o'zining xulq atvorini va tengdoshlarining xulq atvorini to'g'ri baholashga o'rgatish lozim. Turli millat bolalari va kattalarni yoqtirish, ularga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash; insonparvarlik xis-tuyg'ulari va munosabatlarining namoyon bo'lishiga, ularning ijtimoiy yo'nalganligiga erishish zarur.

Bolalarda mashg'ulotlardagi faoliyat jarayonida vujudga keladigan turli vaziyatlarni baholashdan foydalanib topshiriqlarni ishtiyoq bilan bajarish, tengdoshlariga yaxshi munosabatda bo'lish zarurligi to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish mактабгача yoshdag'i bolani ta'lim sifatiga ham, uni axloqiy tarbiyalashga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagog topshiriqga e'tiborsiz munosabatning mumkin bo'lgan oqibatlarini ko'rsatadi, qiyinchilikni bartaraf etish, o'rtog'iga yordam berish uchun qanday yo'l tutish kerakligi haqida maslahat beradi. Agar bunda u bolaga hurmat bilan qarasa, ijobiy-emotsional holatni saqlasa, bolalarda shug'ullanish istagi, qiyinchiliklarni yengish ko'nikmasi, umumiy ishda ishtirok etishga bo'lgan intilish rivojlanadi.

**XULOSA.** Tushuntirishni uzoq davom etadigan pand-nasihatga aylantirib yubormaslik kerak, chunki har safar konkret vaziyat baholanadi va pedagogning shu bilan bog'liq bir nechta so'zi uning bola bergen javobga, uning qilgan ishiga munosabatini ishonchli tarzda ko'rsatib berishi mumkin. Tarbiyachining bunday bahosi asta-sekin bolalarning bahosiga aylanadi, ular qanday xatti-harakatlarga erishish, qaysilaridan voz kechishni o'zlashtirib olishadi.

Mактабгача yoshdag'i bolalarni ma'naviy tarbiyalash yuzasidan olib boriladigan ishlar ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan vazifalarga muvofiq ravishda takomillashtirilishi lozim. Mактабгача yoshda shakllanadigan axloqiy his-tuygular, xulq-atvor odatlari va tasavvurlar butun bolalar faoliyatiga va ular o'rtasidagi, bolalar bilan kattalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar kompleksiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarda faoliyatda barqarorlik va maqsadga intilishni; mustaqil o'ynay olish, kattalarni topshiriqlarini ishtiyoq bilan bajarishni, tirishqoqlikni namoyon etishni, vujudga keladigan qiyinchiliklarni mustaqil bartaraf etishga urinishni, mashg'ulotlarda, mehnatda faol qatnashishni rivojlantirish zarur ekanligi shak shubhasizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov Y., Nurmatova O. Pedagogika fanidan o'quv qo'llanma Toshkent -2014
2. Mavlonova .R, To'rayeva .O, Xoliqberdiyev .K Pedagogika Toshkent- 2011
3. Turabova, S. K. (2021). The relationship between the development of innovative thinking and argumentative competence. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 297-300.

4. Ilk va muktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. -T.: 2018.
5. R.J. Ishmuhamedov va boshq. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.T.: "Nihol" nashriyoti, 2016.
6. Maxbuba Baxranovna , R. 2022. BOSHLANG'ICH TA'LIM MATEMATIKA DARSLARIDA QADRIYATLAR ORQALI O'QUVCHILARNI MA'NAVIY TARBIYALASH. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*. 3, 2 (Feb. 2022), 130-135.
7. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:[www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)